

**FARMATSIYANING HAYOTIMIZDAGI ÖRNI**

Qōldosheva G.F. TDSI talabasi

Ilmiy raxbar: Siddiqov N.N

Annotatsiya: Farmatsiyaning hayotimizdagi ahamiyati shuningdek bugungi kunda olib borilayotgan chora tadbirlar.

Kalit sōzlar: Farmatsiya, farmakalogiya, dori- darmonlar, eksport-import, zamonaviy infratuzilma, korxonalar.

Mamlakatimizda aholi salomatligini muhofaza qilishga davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishi sifatida eʼtibor qaratilmoqda. Ayniqsa, soʻnggi yillarda yurtimizda sogʻlom turmush tarzini qoʻllab-quvvatlash, xalqimizni rozi qilish maqsadida birlamchi tibbiyot tizimi faoliyatini tubdan yuksaltirish, dori-darmon taʼminotini yaxshilash, hududlarda ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlarni yoʻlga qoʻyish bilan bogʻliq amalga oshirilayotgan keng koʻlamli ishlar yangicha mazmun kasb etyapti. Tibbiy xizmatlar koʻlami va sifatini oshirish jarayonini yuqori samarali dori-darmonsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Aholining unga boʻlgan ehtiyojini toʻliq qondirish esa farmatsevtika sanoatining qay darajada rivojlangani bilan bogʻliq. Yurtimizda bu sohada ham salmoqli ishlar qilinmoqda.

Ortga nazar tashlaydigan bōlsak- Mustaqillikning ilk yillarida mamlakatimizda bor-yoʻgʻi 2 ta farmatsevtika korxonasi faoliyat yuritgan. Mahalliy ilmiy-tekshirish institutlari bilan hamkorlikda 20 ga yaqin dori ishlab chiqarilgan. Dori-darmon va tibbiyot buyumlarini ishlab chiqarish, uning sifatini nazorat qilish, eksport-importini amalga oshirish, sohada malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi ishlar oʻz holiga tashlab qoʻyilgani, sohada faoliyat yurituvchi olimlarga eʼtiborning yoʻqligi, gʻoya va loyihalarga pul ajratilmagani oʻz-oʻzidan soha rivojiga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Tarmoqda zamonaviy dorilar yaratilmagan yoki yaratilgani ham ishlab chiqarishga tatbiq etilmagan. Chunki infratuzilma, xalqaro sifat sertifikatini bera oladigan laboratoriyalar yaqin-yaqingacha yoʻq edi. Tizimdagi ilmiy-tadqiqot institutlari ham bir navi faoliyat olib borardi. Bu oʻz-oʻzidan aholining dori-darmon va tibbiy vositalar bilan taʼminlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatmasdan qolmasdi. Deylik, shifoxonaga tushgan bemorning yaqinlari dori izlab



sarson-sargardon bo‘lgan, kamyob dorilarni topa olmay, chetga buyurtma bergan holatlarga ko‘p guvoh bo‘lganmiz. Ayrim dorixonalarda sifat litsenziyasi bo‘lmagan, yaroqlilik muddati aniq ko‘rsatilmagan yoki o‘tib ketgan dori-darmonlar sotilgani ham bor gap. Bu tabiiyki, sohadagi ishlar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilganidan dalolat beradi. Farmatsevtika sohasida savdo nomi va xalqaro patentlanmagan nom degan ikki tushuncha mavjud. Dorining xalqaro patentlanmagan nomi deganda, JSST tashkiloti tomonidan dori tarkibidagi faol dori moddasi (substansiyasi)ning qisqartirilgan nomini berish orqali dorini identifikatsiya qilish tushuniladi. Sodda qilib aytganda, dori tibbiy amaliyotda savdo nomi (aspirin) yoki kimyoviy nomi (atsetilsalitsil kislota) bilan qo‘llanadi. Bir xil tarkib va shakldagi dori preparatlari, deylik, Germaniya, Hindiston yoki O‘zbekistondagi korxonalar tomonidan turlicha savdo nomlari ostida ishlab chiqarilgan va ularning ta’siri bir xil bo‘lgani holda, narxi farq qiladi.

— Deylik, deklofenak natriy O‘zbekistonda 30 ta firma tomonidan tasdiqlangan va davlat ro‘yxatidan o‘tgan. U har xil savdo nomi ostida ishlab chiqariladi, — deydi Muhabbat Ibrohimova. — “Voltaren”, “Diklo”, “Dikloberl”, “Diklofenak” — bir xil ta’sirga ega dorilar. Lekin har xil korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. O‘zbekistonda dori va tibbiy buyumlarning davlat reyestrda 10 mingga yaqin dori-darmonning savdo nomi qayd etilgan. Shundan xalqaro patentlangan nomdagisi 600-1000 tani tashkil etadi. Butun dunyoda 100 mingdan ortiq nomdagi dori bor. Lekin bizda har bir kasallikka qarshi dori qayd etilgan. Bir jihatdan bu yaxshi. Chunki dori yetishmovchiligi bo‘lmaydi. Ammo preparat asl bo‘lsa, samaradorligi yuqoriroq, qayta ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, foydasi kamroq bo‘ladi. Retseptga dorining xalqaro patentlanmagan nomi yozilishi talabi ba’zi davolovchi shifokorlarning aniq savdo nomidagi aynan bir firma mahsulotini bemorga tayinlashi, dorixonalarning esa atay qimmat dorini bemorga sotishining oldini olishga qaratilgan. Bu, o‘z navbatida, bemorga imkoni va hamyoniga qarab ish ko‘rish uchun sharoit yaratadi. Qimmat dori tufayli tegishli muolajalarni oxirigacha yetkazmasligining oldini oladi.

Davlat farmakopeyasi – dori vositalari va tibbiy buyumlar sifatini belgilovchi zamonaviy talablar jamlanmasidan iborat bo‘lib, u o‘z navbatida, bir tomondan, alohida davlatda farmatsevtika sohasini rivojlanganligi darajasini ko‘rsatuvchi omil bo‘lsa, ikkinchi



tomondan, kelgusida shu davlatda dori vositalari sifatini yana-da yaxshilanib, takomillashtirilib borishning asosini ham tashkil qiladi. Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Davlat farmakopeyasini ishlab chiqilishini tashkillashtirish, uni tasdiqlanishi va amaliyotga joriy etilishi, yurtboshimiz tomonlaridan farmatsevtika sohasiga ajratilayotgan alohida katta e’tiborining yana bir isboti bo‘lib, u mahalliy farmatsevtika korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni, shu jumladan, respublikada yaratilgan yangi, original farmatsevtika mahsulotlarini xalqaro tibbiyot amaliyotida qo‘llashga taqdim etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tibbiyot psixologiyasi etikasi va deontologiyasi asoslari T.- 1997.
2. ”Patopsixologiya va tibbiyot psixologiyasi” Asranbayeva T.-2005.
3. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛАШТИРИШ: Сиддиқов Нурали Нишоналиевич, ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси
НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022
4. СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА
НН Сиддиқов - Социосфера, 2020
5. Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik. Tashkent: Ibn-Sino, 2000, 2002, 2006.

ILMIY NASHRLAR MARKAZI